

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

**“TURIZM VA SERVIS”  
KAFEDRASI**

*Qo‘lyozma huquqida  
UDK: 338.48(575.1)*

**KUZIBAYEV DAVRON RUSTAMOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI**

**710110401-“Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)”  
mutaxassisligi bo‘yicha**

**magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S E R T A S I Y A**


**Ilmiy rahbar:  
i.f.d.(DSc), professor A.N. Norchayev**

**TOSHKENT – 2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm va servis" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.


8 -sonli bayonnoma "17" "04" 2023 y.

Kafedra mudiri: I.A. Axmedov

  
imzo

08.05.2023  
sana

Ilmiy rahbar: A.N. Norchayev

  
imzo

05.05.23  
sana

Talaba:

D. R. Kuzibayev

  
imzo

05.05.23  
sana

Dissertatsiya mavzusi Magistratura bo'limida 2021 yil

"20" dekabr.

№ 808-T raqami bilan ro'yxatga olingan.

## ANNOTATSIYA

Turistlarga xizmatlar ko'rsatish va turizm infratuzilmasi rivojlangan davlatlar hisoblangan Ispaniya, Turkiya, Fransiya, Xitoy, AQSh tajribasidan ko'rinadiki, ichki turizmni rivojlantirish orqali xalqaro turizmni rivojlantirishga zamin yaratgan. Shularni hisobga olgan holda respublikamizda ham ichki turizmni, uning infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zamon talabidir. Shu jihatdan ham, mavzuning dolzarb ekanligini hisobga olgan holda, ushbu mavzu doirasida tadqiqot va tahlillarni olib bordik.

Tadqiqotimiz mavzusining maqsadi va vazifalarini yoritib berish jarayonida xorijiy va mahalliy manbalardan, ilmiy tadqiqotlardan hamda hududiy prognozlash modellaridan keng foydalangan holda mavzuni yoritdik.

Mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati keng bo'lib, O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishdagi muammolarni va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

***Kalit so'zlar:*** turizm, turist, ichki turizm, infratuzilma, innovatsiya, resurs, klaster, davlat hususiy sherikligi, loyiha, hududiy rejalashtirish, prognozlash.

## SUMMARY

It can be seen from the experience of Spain, Turkey, France, China, USA, which are countries with developed tourism infrastructure and services for tourists, that the development of domestic tourism created a basis for the development of international tourism. Taking this into account, it is urgent to carry out research on the development of priority directions for the development of domestic tourism and its infrastructure in our republic. In this regard, considering the relevance of the topic, we conducted research and analysis within this topic.

In the process of elucidating the goals and tasks of our research topic, we covered the topic with extensive use of foreign and local sources, scientific research and regional forecasting models.

The scientific and practical importance of the topic is wide, scientifically based proposals and recommendations were developed on the problems of domestic tourism development in Uzbekistan and their solutions.

**Keywords:** tourism, tourist, domestic tourism, infrastructure, innovation, resource, cluster, public private partnership, project, regional planning, forecasting.

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	6
Keltirilgan qisqartmalar.....	6
<b>KIRISH.....</b>	<b>7</b>
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	7
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	8
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	9
Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.....	10
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	10
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	10
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>12</b>
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	12
1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	18
1.3. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi.....	22
<b>II BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>26</b>
2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	26
2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	26
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	27
2.4. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	28
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>29</b>
3.1. O'zbekistonda turizm rivojlanish holatining iqtisodiy tahlili.....	29
3.2. O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish.....	38
3.3. Ichki turizmni rivojlantirishda hududiy rejalashtirish usullari.....	47
3.4. Ichki turizm rivojlanishini hududiy prognozlash modellari.....	52
3.5. Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	55
<b>XULOSA.....</b>	<b>57</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>61</b>
<b>Ilovalar.....</b>	<b>66</b>

## **KIRISH**

Jahon turizmi 2019 yilning oxirida yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi oqibatida inqirozga yuz tutdi. Inqirozdan tezroq chiqib ketish uchun barcha davlatlar asosiy e'tiborni ichki turizmni rivojlantirishga qarata boshladi. Ichki va tashqi turizm rivojlanishishi bo'yicha omillar ta'sirini bilish, turistik jozibadorlik nuqtai nazaridan o'ngangan holda raqobatbardosh xizmat turlarini ko'rsatish, xizmatlarning yangi turlariga e'tibor berish, yangi yo'nalishlarni taklif etish, turizmga yangi texnologiyani joriy etish, respublikamizdagi turistik zaxiralardan unumli foydalanish, maxsus turistik xududlarni barpo etish orqali aholini ish bilan ta'minlash, sarmoyalarni kiritish hisobidan infratuzilmani yaxshilash, YaHMga salmoqli xissa qo'shish, uning samaradorligini oshirishga boyicha ilmiy tadqiqotlar keng olib borilmoqda.

O'zbekistonda ham ichki turizmni rivojlantirish, xususan, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, turizm faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, yangi standartlar va boshqaruv tizimlari takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga mehmonxonalar, restoranlar, transport xizmati ko'rsatishni yaxshilash bilan infratuzilmadagi muammolarni yechish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ixtisoslashgan turizm-rekreatsioon zonalarini barpo etish borasida izlanishlar olib borish ahamiyatli bo'lmoqda.

Bulardan ko'rinib turibdiki, sohani rivojlantirish mintaqalarga mahalliy va chet-ellik sayyohlar tashrifini oshirish, sayohatga mahalliy aholini jalb etish, YaHMda xizmatlar eksportini ta'minlash, qo'shimcha ish joylarini tashkil qilish, turizm zahiralaridan samarali foydalanish orqali sayyohlarga qo'shimcha qulayliklar yaratishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish katta ahamiyatga ega.

### **Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi**

Mamlakatimizda ichki turizmni zamonaviy talablar asosida jahon turizmni samarali rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. "Turizm – bu ham investitsiya, ham eksport, ham yangi ish o'rinlari va kambag'allikni qisqartirish degani. Shuning